



ZAMONAVIY TA'LIMDA HARBIY-PEDAGOGNING O'RNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR

Haydarov J.G'.

*O'zbekiston Respublikasi harbiy aviatsiya instituti
Taktika va maxsus fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: harbiy pedagog, texnologiya, zamonaviy, professional, ma'naviy-axloqiy, jarayon, mezon, ta'lim-tarbiya.

Ключевые слова: военный педагог, технология, современный, профессиональный, морально-этический, процесс, критерий, образование.

Key words: military teacher, technology, modern, professional, moral and ethical, process, criterion, education.

Hozirgi kun ta'lim jarayonida harbiy pedagoglarning professionalligiga zamonaviy hamda sifatli ma'lumotga ega bo'lishning asosiy sharti sifatida qaralmoqda. Shu sababdan ham kasbiy pedagogik kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining mohiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kompetentlik – mansabdor (pedagog) shaxsning shaxsiy imkoniyatlari, uning o'zida mavjud bilim va ko'nikmalar, malaka va tajriba yordamida ma'lum bir vazifalarni hal qilish yoki yechimi bilan bog'liq masalalarni ishlab chiqishga imkon beruvchi qobiliyatidir. Kompetentlik shaxs kasbiy faoliyatining mohiyatini tashkil etuvchi funksional vazifalarni samarali amalga oshirishiga imkon beruvchi bilimlar, malakalar, qobiliyatlar va shaxsiy sifatning tizimli namoyon bo'lishida, uning bilimdonligi, dunyoqarashining kengligi, obro'si va shu kabilarda namoyon bo'ladi.

Kompetensiya – ma'lum bir soxada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan ta'limiy tayyorgarligiga qo'yilgan talabdir. .

Ta'limga kompetentli yondashuv – muayyan usullar va pedagogik yondashuvlardan foydalanishni nazarda tutadi.

Pedagogik mahorat-shaxsning pedagogik sifatleri majmui va o'qituvchi tomonidan kaspiy pedagogik faoliyatini mustaqil ravishda samarali tashkil etishni



ta'minlash bo'lib, u pedagogning faoliyat mohirligini eng yuqori cho'qqisiga erishganligini bildiradi.

Aynan pedagogik mahorat zamirida pedagogik kompetentlik yotadi.

Mustaqillik yillaridan keyin mamlakatimizda pedagogning kasbiy maxoratini, bilim va ko'nikmalarini oshirish, aynan pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha juda ko'plab ishlar olib borilmoqda. Shu jumladan ta'lim tizimidagi harbiy pedagoglarning ham bilim va malakalarini oshirish, ularni qayta tayyorlash va juda tez rivojlanib borayotgan zamon talablariga javob beradigan harbiy kadrlarni tayyorlashga nafaqat davlat rahbari balki vazirlik ham katta etibor qaratmoqda.

Zamonaviy pedagogikaning aynan pedagogik kompetentlikga turli manbaalarda turlicha ta'rif beriladi.

Pedagogik kompetentlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar, standartlar va talablarga muvofiq pedagogik funksiyalarni bajarishga tayyorlik va qodirlikni belgilovchi professional-shaxsiy xususiyatlar tushuniladi. Professional-pedagogik kompetentlik pedagogik voqelikni izchil idrok etish va unga izchil ta'sir ko'rsatish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Professional kompetentlik o'z faoliyat sohasida erkin mo'ljal olishni nazarda tutadi. Ushbu talablardan kelib chiqib, harbiy pedagoglarning tayyorgarligi ham shunga munosib darajada bo'lishi, pedagogik kompetentligini keng qo'llagan holda harbiy kadrlarni tayyorlashga safarbar qilishi talab etilayapti.

Kompetentlik uchta muhim omil bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishni nazarda tutadi:

- odamlar bilan munosabat o'rnatish madaniyatini;
- o'z faoliyat sohasi haqida o'quv axborotlarni olish ko'nikmasini;
- o'quv axborotini boshqalarga berish ko'nikmasini.

Shunday qilib, professional-pedagogik kompetentlik quyidagi asosiy komponentlar bilan tavsiflanadi:

- shaxsiy-insoniy mo'ljal;
- pedagogik jarayonni tizimli idrok etish;
- o'z faoliyati sohasida mo'ljal ola bilish;
- pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirganlik.

Pedagogning menejer sifatidagi muvaffaqiyati nima bilan belgilanadi?

N.M. Karamzin: "Buyuk odamlar iste'dodi boshqa odamlarda iste'dodlarni kashf etishdan iboratdir", degan edi. O'z-o'zidan ravshanki, menejment pog'onasiga ko'tarilgan har bir pedagog shu uslubda ishlashi shart. O'z o'quvchilarida iste'dodlarni kashf etish pedagog yetuk mahoratining tasdig'idir. Ammo "iste'dodlarni kashf etish" mexanik jarayon emas. Bu yerda pedagogning birinchi bosqichda o'quvchilarga o'rnak bo'lish orqali ularda qiziqish uyg'otish



va so'ngra ularning o'z tashabbusiga yo'l ochish qobiliyati alohida rol o'ynaydi. Bu yerda gap pedagogning liderlik fazilatlarini haqida boradi.

Professional-pedagogik kompetentlikning yuqorida zikr etilgan elementlari murakkab tuzilmani, mutaxassisning "ideal modeli"ni tashkil etadi, uning shaxsiy-faol tavsifini belgilaydi.

Kompetentli o'qituvchi – bu kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan, nafaqat o'z faoliyatini loyihalashtira oladigan, balki ta'lim jarayonidagi har qanday o'zgarishlarga sezgir holda pedagogik jarayonni boshqara olishga qodir mutaxassisdir.

Pedagogik jarayonni amalga oshirishga nazariy va amaliy jihatdan tayyorlik pedagogning professionalligini ko'rsatadi.

Kompetentli pedagog nimaga qodir bo'lishi lozim?

- o'zining hayotiy muammolarini tashabbus, mustaqillik va mas'uliyat ko'rsatgan holda hal eta olishi;
- mutaxassisga qo'yiladigan zamonaviy talablarni yaxshi bilishi va kasbiy yutuq pillapoyasidan muvaffaqiyatli harakat qilishi uchun kursantga qanday bilim, ko'nikma va malakalar kerak bo'lishini tushunishi;
- o'z kursantlarining haqiqiy hayotiy va kasbiy qiziqishlarini ko'ra olishi va tushunishi;
- o'z kursantlariga, ularning fikrlari va savollariga hurmat bildirishi;
- muammoli vaziyatlarni tushunishi;
- o'rganilayotgan materialni kundalik hayot va xizmat va kursantlarning qiziqishlari bilan bog'lay olishi;
- bilim va malakalarni o'quv va o'qishdan tashqari amaliyotda mustahkamlashi;
- o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirishda ta'limning turli shakl va metodlarining keng imkoniyatlaridan foydalana olishi;
- maqsadlar qo'yishi va ularga erishilganlik darajasini kursantlar bilan birgalikda baholay olishi;
- muvaffaqiyat vaziyatini yaratish metodini puxta egallashi;
- kursantlardagi mavjud tajribaga tayangan holda ortiqcha vaqt sarflamasdan yangi tajriba hosil qilish;
- o'zi yetarli kompetentlikka ega bo'lmagan masalalarni muhokama qilmaslik, ammo holat shuni taqqozo qiladigan bo'lsa, muhokama qilish uchun ekspert va mutaxassislarni jalb qila olishi;
- kursantlarning yutuqlarini nafaqat baho bilan, balki mazmunli tavsiflash yordamida ham baholay olishi;
- kursantning nafaqat fandagi yutuqlarini, balki shaxsiy sifatlaridagi rivojlanishni ham baholay olishi;



- nafaqat bilimidagi, balki sotsiumda yashashga tayyorligidagi kamchiliklarni ham ko‘ra bilishi;
- kursantlarga nafaqat fan doirasida balki hayotiy masalalarda ham ko‘mak bera olishi;
- kursantlar bilan muloqatni ofitser-kursant sifatida emas, balki pedagog-ta‘lim oluvchi sifatida tashkil qila olishi;
- kursantlarning talab va istaklarini diqqatlik bilan tanglash, muloxaza qilish va imkon darajasida yordam qo‘lini chuza olish.

Harbiy-pedagog professional kompetentligi darajalari qo‘yidagilar bilan belgilanadi:

Aytilganlardan tashqari, harbiy pedagog uchun fan bo‘yicha kompetentlik, umumpedagogik kasbiy kompetentlik, boshqaruvchanlik kompetentligi, refleksiv kompetentlik, axborot-kommunikativ kompetentlik, innovatsion faoliyat kompetentligi, kreativ kompetentlik ham muhim sanaladi hamda ular hammasi birgalikda o‘qituvchining yuksak mahorat cho‘qqisini egallashlariga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, yuqoridagi ko‘rsatgichlarni inobatga olgan holda, fanning rivojlanishi bilan ilmiy-texnik taraqqiyot bir-birini taqozo etib, ijodiy faoliyatni tashkil etish jarayonini axborotlar bilan ta‘minlash muayyan darajada boshqarish yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Pedagog-ofitserlarni ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonining samarasi ko‘p jihatdan uning axborot ta‘minotiga ega bo‘lishini va pedagogik jihatdan boshqarish yo‘nalishlarining tizimli, zerikarsiz hamda uzluksiz bo‘lishini taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoev Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir. /O‘zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi. // Vatanparvar, 2018 yil 13 yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy Nizomlari. – T.: Sharq, 2007. – 496 b.
3. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: O‘qituvchi, 2011. – 206 b.
4. Ochilov M. Muallim – qalb me‘mori. – T.: O‘qituvchi, 2001. – 430 b.
5. Saidov U. Boshqaruv va notiqlik san’ati. //O‘quv qo‘llanma. – T.: G‘afur G‘ulom, 2011. – 176 b.

РЕЗЮМЕ

Bo‘lajak harbiy kadrlarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, ularni yetuk malakali kasb egasi etib tayyorlash va harbiy ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish zamonaviy harbiy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib sanaladi.

РЕЗЮМЕ

Развитие профессиональной подготовки будущих военнослужащих, подготовка из них полноценных специалистов, повышение эффективности процесса военного образования считается одной из актуальных задач современной военной педагогики.

SUMMARY

The development of professional training of future military personnel, training of them as full-fledged specialists, increasing the efficiency of the military education process is considered one of the urgent tasks of modern military pedagogy.